

Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2019 yilning yanvar-martida Farg'ona viloyati bo'yicha yalpi hududiy mahsulot (keyingi o'rinlarda YaHM) hajmi joriy narxlarda 5 761,0 mlrd. so'mni tashkil etdi va 2018 yilning tegishli davriga nisbatan 6,1 % ga o'sdi.

2019 yil yanvar-mart yakunlari bo'yicha aholi jon boshiga YaHM 1561,5 ming so'mni tashkil etdi va bu ko'rsatkich o'tgan yilga nisbatan 4,3 % ga oshdi.


O'zbekiston Respublikasi bo'yicha YaIM ni shakllantirishda Farg'ona viloyatining qo'shgan hissasi 6,3 % ni tashkil etdi.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha YaHM ni ishlab chiqarish (yanvar-mart)

	Mlrd.so'm		2018y. ga nisbatan % da
	2018y.	2019y.	
I. YaHM	4 092,9	5 761,0	106,1
<i>shu jumladan:</i>			
Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	3 898,1	5 303,3	106,1
Mahsulotlarga sof soliqlar	194,8	457,7	106,8
II. Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	3 898,1	5 303,3	106,1
Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi	767,3	920,1	105,3
Sanoat (qurilishni qo'shgan holda)	1 271,0	2 006,1	108,5
sanoat	1 030,9	1 660,8	105,5
qurilish	240,1	345,3	121,6
Xizmatlar	1 859,8	2 377,1	104,7
savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	434,7	523,8	106,7
tashish va saqlash, axborot va aloqa	385,2	426,3	103,8
boshqa xizmat tarmoqlari	1 039,9	1 427,0	104,3

Hudud iqtisodiyotining asosiy tarmoqlarida kuzatilgan o'sish sur'atlari YaHM o'sishida asosiy omil bo'lib xizmat qildi. Jumladan, qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi tarmog'ining o'sish sur'ati 105,3 %, (YaHM tarkibidagi ulushi – 17,3 %), sanoat – 105,5 % (31,3 %), qurilish – 121,6 % (6,5 %) va xizmatlar sohasi – 104,7% (44,9%).

2019 yilning yanvar-martida YaHMning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha o'sish sur'atlari




Iqtisodiy faoliyat turlari

Hudud iqtisodiyotining barcha tarmoqlarida yaratilgan yalpi qo'shilgan qiymat (YaQQ) hajmi umumiy YaHMning 92,1 % ini, mahsulotlarga sof soliqlar esa 7,9 % ini tashkil etdi.


Qishloq, oʻrmon va baliq xoʻjaligi YaHMning tarmoqlar boʻyicha tarkibidagi ulushi 2,4 % punktga kamaydi va hisobot yilida 17,3 % ni tashkil etdi. Sanoat (qurilishni qoʻshgan holda) tarmogʻining ulushi 5,2 % punktga oʻsdi va 37,8 % ni tashkil etdi. Xizmatlar sohasining YaHM tarkibidagi ulushi 44,9 % ni tashkil etdi va 2018 yil mos davri (47,7 %) bilan taqqoslanganda 2,8 % punktga kamaydi.

Yalpi hududiy mahsulotning tarmoqlar boʻyicha tarkibi (jamiga nisbatan foizda)

2018 yil yanvar-mart



2019 yil yanvar-mart




- Mahsulotlarga sof soliqlar
- Tarmoqning yalpi qoʻshilgan qiymati
- Qishloq, oʻrmon va baliq xoʻjaligi
- Sanoat (qurilishni qoʻshgan holda)
- Xizmatlar


Savdo, yashash va ovqatlanish boʻyicha xizmatlarning YaHM tarkibidagi ulushi 9,9 % ni (2018 yil yanvar-mart– 11,2 %), tashish va saqlash, axborot va aloqa – 8 % ni (9,9 %), xizmat koʻrsatuvchi boshqa tarmoqlar – 27 % ni (26,6 %) tashkil etdi.

**Xizmatlar sohasining yalpi qo‘shilgan qiymati tarkibi
(2019 yil yanvar-mart, jamiga nisbatan foizda)**

2018 y.



2019 y.



- savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar
- tashish va saqlash, axborot va aloqa
- xizmat ko'rsatuvchi boshqa tarmoqlar

**Statistika faoliyatini tashkil etish va yig'ma
axborot-taxliliy ishlar bo'limi
Nashr uchun mas'ul: F. Dadaboev.
Tel: 73 241-72-52**